

Torli-kamonli va yog'och damli cholg'ular

Torli-kamonli cholg'ular



Torli cholg'ular **yog'ochdan** tayyorlanadi. Ushbu oilaga mansub har bir cholg'u to'rtta torga ega. **Torlar tebranganda** tovush paydo bo'ladi. Ular ustidan kamoncha bilan yurgiziladi yoki barmoqlar bilan chertiladi. **O'ng qo'l kamonchani** tutadi, **chap qo'l** esa tovush balandligini o'zgartirish uchun **torlarni** bosib turadi. Ijro davomida **skripka** va **alt** yelkaga qo'yiladi.



Skripka torli cholg'ular ichida **eng kichik** va eng jarangdoridir. U eng **yuqori tonga** ega bo'lgani bois, asosan, **bosh kuyni** ijro etadi.

Orkestrda **birinchi** va **ikkinchi skripkalar** bor. Birinchilari kuyda yetakchilik qiladi, ikkinchilari esa **akkompanement*** vazifasini bajaradi.

Bosh skripkalar dirijorga orkestrni



boshqarishga yordam beradi. Musiqachilar ularga torli guruh sardorlari sifatida qaraydilar, shuning uchun hamma birgalikda va hamohang bo'lib cholg'ularni chaladi.



Alt skripkadan biroz kattaroq, tovushi esa **past** va **mayinroq**. Alt ham skripka kabi chalinadi, biroq u dilga yaqin ilqlik bilan yangraydi. Altlar skripkalar bilan birgalikda go'zal uyg'unlikni yaratib, **orkestrning o'rtasiga** joylashtiriladi.



***akkompanement** – musiqiy jo'rlik bo'lib, asosiy ijrochiga ko'maklashadi

Violonchél torli-kamonli cholgʻu boʻlib, unda toʻrtta tor mavjud. Uni chalish uchun musiqachi violonchelni tik tutib, ingichka uchini polga tiraydi. Kamonchani **torlar ustidan yurgizadi**, qoʻli bilan esa **grifdagi torlarni bosadi**, shu tariqa tovush balandligi oʻzgaradi.

7



Kontrabás – torli cholgʻularning eng kattasi. U **past** va **kuchli tovushga** ega, oʻlchamlari boʻyicha esa koʻpgina musiqachilardan baland. Kontrabas tik turgan yoki baland kursida oʻtirgan holatda chalinadi. Ushbu cholgʻusiz orkestr toʻliq boʻlmaydi, u **musiqa sadolarining asosini** tashkil etadi.

8



Torli-kamonli cholgʻular – skripka, alt, violonchel va kontrabas turlicha yangraydi, biroq birgalikda goʻzal musiqani yaratadi. Ularning har birida oʻz vazifasi bor: birlari kuyda yetakchilik qilsa, boshqalari joʻr boʻlib, tovushlarning chuqur va toʻliq yangrashiga hissa qoʻshadi. Ular orkestrda birgalikda yangraganda, musiqa ifodali va jonli taraladi.



1. Nima uchun cholgʻular **torli** deb ataladi?
2. **Altning skripkadan** farqli jihatlari qanday?
3. Eng katta va boshqalariga nisbatan past yangraydigan cholgʻu qaysi?
4. **Kontrabasning** orkestrdagi vazifasi qanday?

Yog'och damli cholg'ular



Dastavval barcha damli cholg'ular **yog'ochdan** yasalgan, shuning uchun ham ular **yog'och damli** deb nomlanadi.

Hozirda ular **metall** va **plastmassadan** ham tayyorlanadi, biroq nomi avvalgidagidek qolib ketgan. Musiqachi **cholg'u ichiga puflaganda**, uning ichidagi havo tebranib, tovush hosil qiladi.



Fléyta – **yuqori tovushli** yengil cholg'u. Bunda musiqachi fleytaning **maxsus teshikchasiga puflaydi**, barmoqlari bilan esa **klapanlarini yopib ochadi**, shu tarzda tovush balandligi o'zgaradi. Fleytaning ovozi qush sayrashiga o'xshaydi va orkestrda ajoyib yangraydi. Mahoratli musiqachilar



kumush fleyta, endi boshlayotganlar esa **plastik fleyta** chalishadi, chunki u ancha yengilroq.



Gobóy – **sof, kuchli va cho'ziq** tovushga ega. U konussimon shaklli bo'lib, ichida tovushning yorqin va kuchli chiqishiga yordam beradigan tilchasi bor. Goboy butun **orkestrning sozlanishini belgilab beradi**, ya'ni



unga qarab, musiqachilar o'z cholg'ularini konsert oldidan sozlab oladilar.

Klarnét turli o'lchamga va shaklga ega bo'lishi mumkin. U yumshoq yangragani bois ko'pincha **romantik musiqalarda** foydalaniladi. Klarnet **ham yuqori, ham past** notalarni chiqara oladi, shuning uchun u **universal cholg'u** sanaladi. Musiqachi **mundshtukka**, ya'ni og'izga olinadigan qismiga puflaydi, barmoqlari bilan esa **klapanlarini bosadi** va tovush balandligini o'zgartiradi.

11



Fagót – yog'och damli cholg'ular orasida **eng past tovushga** ega. U tuzilishiga ko'ra uzun va murakkab, ammo juda **iliq** va **chuqur tovush** chiqara oladi. Aytishlaricha, uning tembri **insonning past ovozig**a o'xshaydi. Musiqachi **maxsus naychaga puflaydi**, barmoqlari bilan esa **klapanlarini yopib ochadi** va natijada turli tovushlar hosil bo'ladi.

12



Ushbu barcha cholg'ular simfonik orkestrda muhim o'rin tutadi. Ular musiqaning uyg'un va hamohang yangrashiga yordam beradi.



1. Nima uchun bu cholg'ular ba'zida metall va plastmassadan tayyorlansa ham, **yog'och damli** cholg'ular deb ataladi?
2. **Damli cholg'ularda** tovush qanday hosil bo'ladi?
3. Orkestr qaysi cholg'uga qarab sozlanadi?
4. Qaysi cholg'u insonning past ovozi kabi yangraydi?



Ushbu cholg'ularning birortasi haqida kichik taqdimot tayyorlang.

